



LINGVISTIK EKSPERTOLOGIYADA PSIXOLINGVISTIK TAHLIL MUNOSABATI

K.X.Musulmonova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Email: musulmonova66@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8037441>

ARTICLE INFO

Received: 05th June 2023

Accepted: 13th June 2023

Online: 14th June 2023

KEY WORDS

Lingvistik ekspertiza, psixologiya, psixolingvistika, metodologiya, metodologik asos, psixolingvistik tahlil, ekspertiza.

ABSTRACT

Amaliy filologik tadqiqotlarning bir bo'limi sifatida lingvistik ekspertologiyaning metodologiyasini belgilash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Aytish joizki, lingvistik ekspertizaning qaysi fan sohalari bilan bog'liqligi va bunda qanday asoslarga tayanishi masalasi hanuz tadqiq etilganicha yo'q. Lingvistik ekspertizada psixolingvistika alohida rol o'ynaydi. Maqolada lingvistik ekspertiza va psixolingvistika munosabati, aynan lingvistik ekspertizaning qaysi tarkibiy qismlariga taalluqli ekanligi masalasiga oydinlik kiritiladi.

Psixolingvistika ko'pchilik tadqiqotchilarning asosiy qiziqishlari doirasiga kiradi. Inson nutqi va psixologiyasining bog'liqligi xususida tadqiqotlar jadal sur'atlarda davom etmoqda. Aytish joizki, inson psixologiyasida bo'layotgan har qanday o'zgarish va jarayonlar bevosita uning nutqiga ta'sir ko'rsatadi. Psixologiya fan sifatida XIX asrning birinchi yarmida mavjud emas edi. Asr oxiriga kelib bu fan o'zining alohida asoslariga ega bo'ldi. Leyptsigdagi Vundt laboratoriyasining asosini mustaqil fan sifatida psixologiyaning boshlanishi sifatida baholash mumkin. O'n to'qqizinchi asrning boshlarida nemis universitetlarida fakultetlarning bo'limlarga bo'linishi ham psixologlarni falsafiy kishanlardan xalos qildi, ham empirik tadqiqot dasturlarini boshlash yoki kengaytirish imkonini berdi.

Lingvistika va psixologiya kjunbosabatini tahlil etgan olimlar psixolingvistikada lingvistik va psixologik aspektni alohida farqlashga harakat qilishadi.

Psixologik jihat. "Muloqot holatida har qanday aloqa harakati uning yo'nalishi nuqtai nazaridan ma'lum bir rejalashtirilgan javobga qaraladi, bu nuqtai nazardan psixologik ta'sir sifatida belgilanishi mumkin. Til elementlarining ma'nosi bo'yicha shartli ravishda ikkita komponent ajralib turadi: sub'ekt-mantiqiy (denotativ) ma'no va nutq predmetiga munosabatni aks ettiruvchi va hissiy, baholovchi, ekspressiv, ma'noli ma'nolarning yig'indisi sifatida belgilanadigan qo'shimcha (konnotativ). ma'noning assotsiativ obrazli, kontekstual, stilistik komponentlari. Ammo biz u yoki bu so'zni eshitganimizda va tushunganimizda, biz o'sha individual omillarni anglay olmaymiz, balki ma'lumotni yagona, murakkab tasvir sifatida



qabul qilamiz, u bevosita ifodalangan narsadan tashqarida joylashgan va bir vaqtning o'zida u bilan uzviy bog'liq bo'lgan geshtaldir".¹

So'zning o'ziga xos kuchi shundaki, u o'zining yaxlitligi bilan shaxsga maxsus axborot maydoni sifatida qaratilgan. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) hozirgi vaqtda shaxs uchun dolzarb bo'lgan, u uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan va uning ehtiyojlarini qondiradigan narsalar;

2) orttirilgan individual va jamoaviy tajriba, borliq tasviri, dunyo ongsiz ravishda talqin qilinadigan toifalar va ma'nolar tizimi.

Lingvistik jihat. Tilning tuzilishi yorqin ruhiy tasvirlar kabi ongga deyarli bir xil ta'sir ko'rsatadi. Murojaat qiluvchiga tilning kommunikativ kuchini amalga oshirishning oltita asosiy vositasi mavjud:

- 1) so'z va iboralarni tanlash;
- 2) yangi so'zlar va iboralar yaratish;
- 3) grammatik shaklni tanlash;
- 4) axborotni taqdim etish ketma-ketligini tanlash;
- 5) intonatsiya va tonallikdan foydalanish;
- 6) umumiy kontekstdan foydalanish.²

Aytish joziki, shaxs psixologiyasi va uning nutqi masalasi nafaqat psixolingvistik tadqiqotlarda obyekt vazifasini bajaradi, balki lingvistik ekspertizada ham bu alohida ahamiyat kasb etadi. Jahonda psixolingvistik ekspertizalarni tashkil etish bo'yicha yaxlit bir xulosaga kelinganicha yo'q. Buning bosni nutqni psixolingvistik aspektda tahlil qilish dalillarni oydinlashtirishga yordam bermaydi degan qarashni ilgari suruvchilarning o'z fikrlarini qat'iy qo'llab quvvatlashkaridir.

Subyektning nutqiy (lingvistik) ishlab chiqarilishi va uning kommunikativ xatti-harakatlarining xususiyatlari.

Tekshiruv obyekti: Ekspert bilan olib borilayotgan tergov harakatlari (so'roq, so'roq, yuzlashtirish va boshqalar)ni video-audio qayd etish.

Ekspert vazifasi: tergov qilinayotgan hodisaga nisbatan ekspert sub'ektining bayonotlarining ishonchlilik darajasi to'g'risida xulosa chiqarish.³

Avvalo, psixolingvistik ekspertiza xususida umumiy mulohaza yuritishdan avval lingvistik ekspertizada psixolingvistikaning roli masalasini belgilab olish zarur. Bunda lingvistik ekspertiza jarayonida psixolingvistika ham metodologik asos vazifasini bajarishi mumkinmi degan o'rinli savol tug'iladi. Bizningcha, har qanday nutq mahsuloti shaxs kommunikativ maqsadi asosiga quriladi va u bevosita inson psixologiyasi bilan bog'liq. Lingvistik ekspertizada ekspert xulosalarini shakllantirishda matn xususiyatidan kelib chiqqan holda muallifning psixologik holati xususida muayyan axborotlarni olish imkoniyati yuzaga keladi. Shu ma'noda aynan qaysi o'rinlarda psixolingvistik yondashgularga ehtiyoj tug'ishini belgilab olish lozim. Ushbu jihatni biz quyidagicha tizimlashtirdik:

¹ Леонтьев А.А. Основы психолингвистики / А.А. Леонтьев. — М.: Смысл, 2003

² Верещака М.А. Язык и его социальная власть / М.А. Верещака, И.В. Никифорова, Т.Н. Мукина // Мир русского слова. — 2002. — № 5

³ <https://studylie.ru/expertise/psycholing>



1. Qo'l yozuvlari bo'yicha amalaga oshiriladigan lingvistik ekspertizlar va shaxs psixologiyasi munosabati;
2. Shaxsni obro'sizlantirish bilan bog'liq holatlar va bunda shaxs psixologiyasi masalasi;
3. Suitsid xatlarda yozuv dinamikasi, matn tuzilishini tahlil qilish va bunda shaxs psixologiyasi masalasi;
4. Anonim xatlarda shaxs psixologiyasi masalasi.
5. Siyosiy matnlar va ularda shaxs psixologiyasi masalasi

Lingvistik ekspertizaning boshqa turlaridan farqli o'laroq ushbu ko'rsatilgan 5ta tarkibiy qismlarda psixolingvistikaning rolini e'tibordan chetga chiqarmaslik lozim. Odatda psixolingvistik ekspertizalarda audio-video yozuvlar, guvoh ko'rsatmalari bevosita tinglanadi, ekspert e'tiboriga havola qilinadi va u shu asosda subyektning psixologik holati (asabiy, xursand, qo'rquv, xavotir, aldash va sh.k) xusuida umumiy xulosalar shakllantiriladi. Bu masalaning boshqa alohida tadqiq qilinishi lozim bo'lgan jihati. Bu ko'proq sud psixologik ekspertizalari bilan bog'liq jarayon. Lingvistik ekspertizaning psixolingvistika bilan bog'liqligi va aynan lingvistik ekspertizada psixolingvistika qanday metodologik asos vazifasini bajarishi mumkinligini alohida izlanishlar va faktlar natijasida isbotlash zarurati mavjud.

References:

1. Леонтьев А.А. Основы психолингвистики / А.А. Леонтьев. — М.: Смысл, 2003
2. Верещака М.А. Язык и его социальная власть / М.А. Верещака, И.В. Никифорова, Т.Н. Мукина // Мир русского слова. — 2002. — № 5.
3. Баранов А.Н. Метафорическая интерпретация понятия «коррупция»: языковые грани онтологизации бессознательного / А.Н. Баранов // Текст. Интертекст. Культура. — М.: Азбуковник, 2001. 2. Барулин А.Н. Семиотико-лингвистическая экспертиза одного текста Сергея Доренко / А.Н. Барулин // Лингвистика и методика преподавания иностранных языков. Периодический сборник научных статей. — 2016. — Т. 8. — М. — С. 13-89.